



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI**

"Halollik va to'g'rilik"

Umumiy o'rta ta'lim maktab 8-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan dars materiallari

Dars maqsadlari

1 Tushunchalarni o'rgatish

O'quvchilarga halollik va to'g'rilik tushunchalarining ahamiyatini tushuntirish.

3 Oqibatlarni tushuntirish

Imtihonlar va test sinovlarida pora berishning xavf va xatarlarini tushuntirish, to'g'rilikning hayotdagi o'rnini tushuntirish.

2 Farqlarni aniqlash

Yaxshi va yomon xatti-harakatlar o'rtasidagi farqni aniqlash, pora berish va yomon amallarning huquqiy va axloqiy oqibatlarini tushuntirish.

4 To'g'ri yo'naltirish

O'quvchilarni to'g'ri qarorlar qabul qilishga yo'naltirish.

Kutilyotgan natijalar



Tushunchalarni anglash

O'quvchilar halollik va to'g'rilik tushunchalarini aniqlashadi va hayotda qo'llashni o'rganadilar.



Oqibatlarni bilish

Yomon xatti-harakatlar va pora berishning huquqiy va axloqiy oqibatlari haqida bilimga ega bo'ladilar.



To'g'ri yo'lni tanlash

Imtihonlarda to'g'ri va halol yo'llar bilan muvaffaqiyatga erishishning ahamiyatini tushunadilar.




Qaror qabul qilish

O'quvchilar bahs-munozaralar va hayotiy vaziyatlarga asoslanib qaror qabul qilishni o'rganadilar.

Dars metodlari

Suhbat

Mavzuga oid fikrlarni ochib berish va bahs qilish.



Hayotiy vaziyatlar

Amaliy mashg'ulotlar orqali huquqiy va axloqiy qarorlar qabul qilishni o'rganish.

Blits-so'rov

Mavzuga oid tezkor savollar orqali faollikni ta'minlash.

Hikoya

To'g'rilik va halollik haqida aniq hayotiy misollar keltirish.

Bilimlarni mustahkamlash

Olingan bilimlarni mustahkamlash uchun turli faol metodlar.

Foydalanadigan materiallar

Taqdimot

Mavzuga oid ma'lumotlarni beruvchi slaydlar.


Kartochkalar

Halollik, to'g'rilik, yomon xatti-harakatlar, pora berishga oid savollar va vaziyatlar.



Rasmlar

Halollik va to'g'rilikning hayotdagi ahamiyatini ko'rsatuvchi rasmlar.





Darsga kirish

1

Savollar

"Halollik va to'g'rilik — bu hayotimizdagi muhim printsiplardan biridir. Biz hayotda qanday yashashni istaymiz?"

2

Muhokama

"To'g'rilikning hayotimizda qanday ahamiyati bor?"

3

Fikr almashinuvi

"Halollikni qanday tushunasiz? Bu to'g'rilikka qanday bog'liq?"

Halollik va to'g'rilik ta'rifi

Halollik — bu har qanday faoliyatda rostg'o'ylik, adolat va axloq qoidalariga amal qilishdir. To'g'rilik — bu hayotda har bir harakat va qarorni axloqiy va huquqiy, samimiylik jihatidan to'g'ri qabul qilishdir.



Halollik va to'g'rilik misoli:

Maktabda tushlik vaqtida sizning qorningiz juda ham och qoldi, biroq pulingiz yo'q. Shu payt, maktab dahlizida 20 ming so'm pul topib oldingiz, lekin bu pulga ovqatlanish o'rniga siz uni qorovulga kimdir tushirib qoldirganini aytdingiz. Ushbu holatda Siz halol va to'g'ri qaror qabul qilganingizni anglatadi.

Yaxshi va yomon xatti-harakatlar

Yaxshi xatti-harakatlar

Insonning axloqiy va huquqiy holatini ko'rsatadi. Jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



Yaxshi xatti-harakatlar misoli

Agar odam imtihonni halol yo'l bilan topshirsa, u odam jamiyatda hurmatga sazovor bo'ladi.

Yomon xatti-harakatlar

Insonning adolatga qarshi turishi, halol yo'ldan adashishini bildiradi. Shaxs va jamiyatga salbiy ta'sir qiladi.

Yomon xatti-harakatlar misoli

Agar odam pora bersa, u ham shaxsan o'zining, ham atrofdagilarning hayotiga zarar keltiradi.

Pora berish ta'rifi



Pora berish, shu jumladan testda yaxshi baho olish uchun sovg'a berish - bu adolatsizlikka sabab bo'ladi. Pora berish ota-onaning o'z farzandlari hamda yosh avlodga yomon o'rnak bo'ladi.

Misol: "Agar talaba imtihonda yaxshi natija ko'rsatmasa, u xalol yo'l bilan, ya'ni o'zining ustida ishlab, ko'proq bilim olib, muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Lekin agar u pora bersa, u o'zining va atrofdagilarining hurmatini yo'qotadi."

Pora berishning oqibatlari

1 **Huquqiy javobgarlik**

Qonun oldida javobgarlikka tortilish mumkin.

2 **Axloqiy tanazzul**

Jamiyatda obro'sizlanish va ishonchni yo'qotish.

3 **Kelajakka ta'sir**

Kelajakdagi imkoniyatlarni yo'qotish.



Hayotiy vaziyat 1

Siz imtihonga tayyor emassiz va do'stingiz sizga testda yuqori baho olish uchun o'qituvchiga pora berishni taklif qiladi. Nima qilasiz?

Muhokama

1 To'g'ri yo'l

Taklifni rad etish va o'qishga ko'proq vaqt ajratish.

2 Oqibatlar

Pora berish huquqiy va axloqiy muammolarga olib kelishi mumkin.

3 Muqobil yechim

O'qituvchidan qo'shimcha yordam so'rash yoki imtihonni kechiktirish imkoniyatini so'rash.



Hayotiy vaziyat 2

Siz o'z vaqtida vazifalarni bajarganingiz uchun yuqori baho olishni xohlamoqdasiz, lekin sinfdoshlaringiz o'qituvchidan foydalangan holda u bilan kelishib olishadi. Bu vaziyatda qanday yo'l tanlashingiz kerak?

Muhokama:

1

Prinsipial pozitsiya

O'z mehnatiga ishonish va halol baholanishni talab qilish.

2


Muloqot

O'qituvchi bilan ochiq suhbat o'tkazish va vaziyatni tushuntirish.

3

Rasmiy murojaat

Zarur bo'lsa, maktab ma'muriyatiga murojaat qilish.





Blits-so'rov

1

To'g'rilik va halollik o'rtasida qanday farq bor?

2

Pora berish qanday huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?

3

Imtihonlarda halol yo'ldan muvaffaqiyatga erishishning ahamiyati nimada?

4

Jamiyatda halollik va to'g'rilik printsiplari qanday rivojlanadi?



Xulosa

Halollik va to'g'rilik - bu shunchaki so'zlar emas, balki hayot tarzimizni belgilaydigan muhim qadriyatlardir. Agar biz hayotimizda to'g'ri qarorlar qabul qilsak, jamiyatda adolatni va to'g'rilikni ta'minlashga yordam beramiz.

Darsni yakunlash

Axloqiy yo'l

Halollik va to'g'rilik nafaqat huquqiy, balki axloqiy yo'ldir.

Jamiyat manfaati

To'g'ri qarorlar qabul qilsak, jamiyatda adolatni va to'g'rilikni ta'minlashga yordam beramiz.

Shaxsiy foyda

Har bir harakatimizning oqibatlarini o'ylab, halol va to'g'ri yo'ldan borish biz uchun foydalidir.

